

MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK SHE'RIYATIDA ARBAINCHILIK: TAHLIL VA TA'LIMIY YONDASHUVLAR

Olimova Barchinoy Orifjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, talaba

E-mail: barchinoyolimova542@gmail.com, +99850-950-05-26

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20525534>

Annotatsiya: Mazkur maqolada mustaqillik davri o'zbek she'riyatida arbainchilik an'anasining tiklanishi, uning janriy-poetik xususiyatlari hamda ta'lim jarayonidagi metodik imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqotda Sirojiddin Sayyid, G'ayrat Majid va Mansur Jumayev ijodi asosida hadis poetikasining zamonaviy ko'rinishlari, tarjima-sharhdan badiiy talqinga o'tish jarayoni, xalqona ohang, barmoq vazni, to'rtlik va kengaygan shakllarning poetik vazifasi tahlil qilinadi. Shuningdek, arbain va hadis poetikasini maktab ta'limida o'qitishning metodik ahamiyati, nasriy va nazmiy talqinlarni qiyosiy o'qitish, o'quvchi tafakkuri va ma'naviy idrokini rivojlantirishdagi o'rni ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: arbain, arbainchilik, qirq hadis, hadis poetikasi, badiiy talqin, diniy-ma'rifiy she'riyat, janriy transformatsiya, poetik struktura, zamonaviy she'riyat, ta'limiy yondashuv, metodik tahlil, ma'naviy-axloqiy g'oya.

Abstract: This article highlights the revival of the *arbain* (forty hadiths) tradition in Uzbek poetry of the independence period, exploring its genre-poetic features and methodological opportunities within the educational process. Based on the creative works of Sirojiddin Sayyid, Gayrat Majid, and Mansur Jumayev, the research analyzes contemporary manifestations of hadith poetics, the transition from translation-commentary to artistic interpretation, folk rhythms, the *barmak* meter, and the poetic functions of quatrains and expanded structures. Furthermore, it demonstrates the methodological significance of teaching *arbain* and hadith poetics in school education, the comparative teaching of prose and verse interpretations, and its role in developing students' thinking and spiritual perception.

Keywords: arbain tradition, forty hadiths, hadith poetics, artistic interpretation, religious-enlightenment poetry, genre transformation, poetic structure, contemporary poetry, educational approach, methodological analysis, spiritual-moral idea

Mustaqillik yillarida milliy o'zlikni anglash, ajdodlar ilmiy-diniy merosini qayta o'rganish va ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayoni diniy-ma'rifiy she'riyatning yangi bosqichini yuzaga chiqardi. Bu bosqichda Qur'on va hadisga tayangan poetik tafakkur yana faollashib, arbainchilik an'anasi ham zamonaviy adabiy jarayon tarkibida yangi mazmun va shakl bilan qayta namoyon bo'ldi. Arbain endi faqat diniy matnning nazmiy bayoni emas, balki ma'no ko'chishi, tarjima-sharh, badiiy talqin va individual poetik uslub tutashgan murakkab hodisa sifatida ko'rina boshladi ^{1 2}.

Arbain janrining nazariy ahamiyati shundaki, u hadis ilmi, sharq mumtoz poetikasi va milliy badiiy tafakkur orasidagi ichki bog'liqlikni ochadi. BMI materiallarida arbain janri "qirq hadis" atrofida shakllangan diniy-ma'rifiy amaliyotdan badiiy shaklga ko'chgan tarixiy-poetik tizim sifatida talqin qilinadi. Janrning dolzarbligi ham aynan shu yerda: u bir tomondan qat'iy diniy

¹ Qurbonboyeva, Mohidil. O'zbek adabiyotida arbainchilik an'anasi. Toshkent: Anorbooks, 2025.

² Qudratova, M.Sh. "Sirojiddin Sayyid she'rlarida hadislarning badiiy talqini" // "Zamonaviy filologiyada integratsion jarayonlar" mavzusidagi Respublika miqyosidagi onlayn ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Buxoro, 2020. 267-268-betlar.

manbaga suyanadi, ikkinchi tomondan esa har bir davrda yangi poetik imkoniyatlar orqali yangilanadi ³.

Mustaqillik davri arbainchiligi klassik janrning oddiy takrori emas, balki uning yangilangan poetik bosqichidir. Bu davrda arbain an'anasi mumtoz ildizini saqlagan holda, xalqona ohang, barmoq vazni, kengroq sharh, ruhiy qatlam va individual uslub ta'sirida yangi badiiy ko'rinish kasb etdi. Shuning uchun janrning asosiy o'zagi — qirq hadisga tayangan axloqiy-ma'rifiy yo'nalish — o'z mohiyatini yo'qotmagan bo'lsa-da, uning shakli, ohangi va talqin usuli sezilarli darajada o'zgardi. Nazarimizda, mustaqillik davri arbainchiligini aynan shu ichki yangilanish belgilaydi: u an'anani saqlaydi, lekin uni avvalgi qolipda takrorlamaydi ^{4 5}.

Zamonaviy arbainlarning muhim jihati tarjima-sharhdan erkin badiiy talqinga o'tish bilan izohlanadi. Ayrim ijodkorlarda hadis matniga yaqin izohli model saqlanib qolsa, boshqalarida hadis ma'naviy yadro sifatida qoladi va she'r mustaqil poetik birlik darajasiga ko'tariladi. Shu ma'noda zamonaviy arbainchilik ichida bir xil uslub yo'q: unda sharhga yaqin didaktik yo'nalish ham, ruhiy-ijtimoiy kengayishga moyil talqin ham, nozik ishora va poetik siqqlikka asoslangan ko'rinish ham yonma-yon yashaydi. Bizningcha, aynan shu rang-baranglik janrning zamonaviy poetik imkoniyatlari kengayganini ko'rsatadi.

Bunday holat, avvalo, arbainchilikning ichki janriy harakatchanligini ko'rsatadi. Chunki zamonaviy arbainlarda hadis matni bilan she'riy ifoda o'rtasidagi munosabat endi bir yoqlama sharhlash tamoyiliga bo'ysunmaydi. Aksincha, ayrim hollarda hadisi sharif mazmuni she'rning semantik markazi bo'lib qolsa, ayrim hollarda u poetik tafakkurni harakatga keltiruvchi ichki manbaga aylanadi. Natijada she'r faqat nasriy mazmunning nazmiy takrori sifatida emas, balki mustaqil badiiy idrok mahsuli sifatida shakllanadi. Bu esa arbainchilikni tarixiy janr sifatida emas, balki poetik yangilanishga ochiq badiiy tizim sifatida baholashga imkon beradi. Ayniqsa, zamonaviy ijodkorlarda hadis matniga yaqinlik darajasi, sharhning kengligi, lirik subyektning faolligi hamda badiiy xulosaning ifoda shakli bir xil emasligi janrning ichki differensial xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Shu ma'noda mustaqillik davri arbainchiligi qat'iy qolipdan ko'ra poetik imkoniyatlar maydonini eslatadi.

Bu xususiyatlar alohida ijodkorlar poetikasida yanada ravshan ko'rinadi. Sirojiddin Sayyidda hadis mazmuni ko'proq xalqona-ma'naviy kengayish orqali ochilib, ijtimoiy va ruhiy qatlam bilan boyiydi.

Sirojiddin Sayyidning "Yaxshilik eskirmagay" to'plamiga kiritilgan she'rlarda ilmiy kishilar va ularning martabasi haqida so'z borgan:

Ilm-u ma'rifatli elning iqboli,
Hargiz zalolatga giriftor bo'lmas.
Ezgu ilmlarni o'rgatgan zotlar,
Ikki dunyoda ham aslo xor o'lmas.

³ Pulatova, Malohat. "Jomiy, Navoiy va Fuzuliy 'Arba'in'larida hadislarining adabiy talqini masalalari" // "Alisher Navoiy va XXI asr" 9-uluslararo konferensiya materiallari. Toshkent-Bursa, 2024. 141-146-betlar.

⁴ Samatova, Sabohat. "Zamonaviy o'zbek she'riyatida yaratilgan 'Arba'in'larning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari" // IQRO jurnali. 2023. 3-jild, 1-son. 492-495-betlar.

⁵ Pulatova, Malohat. "Jomiy, Navoiy va Fuzuliy 'Arba'in'larida hadislarining adabiy talqini masalalari" // "Alisher Navoiy va XXI asr" 9-uluslararo konferensiya materiallari. Toshkent-Bursa, 2024. 141-146-betlar.

Bu kabi quyma satrlar Sirojiddin Sayyid ijodida juda ko‘plab uchraydi. Ushbu she‘r o‘n ikki satrli bo‘lib, “Foydali ilmlarni o‘rgatuvchi odamning gunohi kechirilishini so‘rab har bir narsa: hatto dengizdagi baliqlar ham istig‘for aytadilar”

hadisining she‘riy sharhi hisoblanadi. She‘rda yana shunday satrlar bor:

Farzandlar shul sabab topgaylar kamol,
Yurt shunday zotlarga iftixor aytar.
Gunohlarin so‘rab dengizlardagi
Baliqlar ham hatto istig‘for aytar

Sirojiddin Sayyidning ushbu she‘rida esa ezgu ilmlarni o‘rgatgan zotlarga dengizdagi baliqlar ham gunohi kechirilishini so‘rab istig‘for aytishini ajoyib satrlarda aks ettiradi. Bunday hadislar talqinini darsliklarda berish orqali ta‘lim va tarbiyaning mohiyatini chuqurroq anglatishimiz mumkin.

G‘ayrat Majidda esa sharhiy ravshanlik kuchliroq seziladi: unda hadis ma‘nosi izchil va didaktik ohangda yoritiladi. Mansur Jumayev poetikasida esa nozik ishora, siqiq poetik ifoda va mustaqil xulosa ustunlik qiladi. Shuning uchun zamonaviy arbainchilik bir tomondan umumiy manbaga — hadisi sharifga — tayansa, ikkinchi tomondan, har bir ijodkorda o‘ziga xos badiiy yo‘l hosil qiladi.

Zamonaviy arbainchilikning yana bir e‘tiborga molik jihati shundaki, unda muallif ovozi avvalgiga nisbatan ancha faol tus oladi. Mumtoz arbainlarda hadis ma‘nosini ixcham va nazmiy shaklda ifodalash ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy namunalarda shoirning ichki munosabati, ruhiy holati, davr haqidagi qarashi ham matn tarkibiga faol kirib keladi. Natijada arbain faqat axloqiy hukmni bayon qiluvchi janr bo‘lib qolmay, muallif tafakkurining ham ifoda maydoniga aylanadi. Bu jarayon ayniqsa hadisning ijtimoiy, ma‘naviy va ruhiy qatlamlar bilan boyitilishida yaqqol ko‘rinadi. Shuning uchun zamonaviy arbainlarni o‘rganishda faqat hadis mazmuniga qay darajada yaqin qolinganini emas, balki shoirning shu mazmunni qanday badiiy tafakkurga aylantirganini ham alohida hisobga olish lozim bo‘ladi. Bizningcha, aynan shu nuqta arbainchilikni tirik adabiy hodisa sifatida tushunishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Mansur Jumayev tajribasi bu jarayonning eng murakkab ko‘rinishlaridan biri sifatida ko‘rinadi. Uning to‘rtliklarida hadis mazmuni ko‘pincha bevosita ko‘chirilmaydi, balki nozik poetik ishora orqali qayta tug‘iladi. Natijada she‘r bir vaqtning o‘zida ham hadis ruhiga tayangan, ham mustaqil badiiy birlik sifatida o‘qiladigan matnga aylanadi. Nazarimizda, bu hol zamonaviy arbainchilikda poetik kondensatsiya kuchayganini ko‘rsatadi: ya‘ni katta ma‘no qisqa, lekin ta‘sirchan she‘riy formulaga jamlanadi. Bu esa janrning ichki poetik kuchi kamaymaganini, aksincha, zamonaviy tafakkur bilan boyiganini anglatadi.

Mustaqillik davri arbainchiligining yana bir muhim belgisi xalqona til va barmoq vaznining faollashuvidir. Bu hol hadisi sharif mazmunini kitobxonga yaqinlashtiradi, uni jonli va ta‘sirchanroq qabul qilinishiga xizmat qiladi. Demak, bu davr arbainchiligi badiiy tilni soddalashtirish yo‘lidan emas, ma‘noni zamonaviy o‘quvchi idrokiga yaqinlashtirish yo‘lidan bordi. Bizningcha, janrning yashovchanligi ham aynan shunda: u murakkab diniy-ma‘rifiy mazmunni badiiy jihatdan soddashtirish, balki yaqin va ta‘sirchan shaklda bera oldi ^{6 7}.

⁶ Qurbonboyeva, Mohidil. *O‘zbek adabiyotida arbainchilik an‘anasi*. Toshkent: Anorbooks, 2025.

⁷ Raimova, Sayyora Zaitovna. “Diniy-ma‘rifiy she‘rlarning janr tavsifiga doir” // *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*. 2021. 1-jild, 6-son. 142–146-betlar.

Xalqona tilning faollashuvi arbainchilikning ommaviylashuvi bilan ham bevosita bog'liqdir. Chunki diniy-ma'rifiy mazmunni keng kitobxon qatlamiga yetkazishda badiiy shaklning soddaroq, ravonroq va ta'sirchanroq bo'lishi zarur edi. Shu ehtiyoj natijasida arbain she'rlarida murakkab kitobiy ifoda o'rnini hayotga yaqin, xalq nutqiga suyanagan, lekin badiiy yukini yo'qotmagan til egallay boshladi. Bu holatni faqat uslubiy soddalashuv deb tushunish to'g'ri emas. Aksincha, bunda ma'no yanada chuqurroq kirib boradigan, o'quvchi ruhiyatiga yaqinroq ta'sir qiladigan ifoda shakli yuzaga keladi. Ayniqsa, barmoq vazni bilan uyg'unlashgan xalqona intonatsiya hadisi sharif mazmunining esda qolarli, ta'sirchan va ichki ohangga ega shaklda berilishiga xizmat qiladi. Demak, bu yerda gap badiiy tilning pasayishi haqida emas, balki uning kommunikativ va estetik quvvatining boshqa shaklda namoyon bo'lishi haqida bormoqda.

Arbainchilikning ahamiyati faqat poetik tajriba bilan cheklanmaydi. U ma'naviy-axloqiy tarbiya, matn bilan ishlash madaniyati va badiiy tafakkurni rivojlantirish nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Ayniqsa, hadis va arbainlarni nasriy hamda nazmiy shakllarda qiyosiy o'qitish o'quvchini tayyor hukmni qabul qiluvchi emas, balki ma'no ustida o'ylovchi subyektga aylantiradi. Shu jihatdan arbain va hadis poetikasini o'qitish adabiy tahlil, ma'naviy tarbiya va estetik idrokni birlashtiruvchi samarali metodik maydon sifatida baholanishi mumkin.

Arbain va hadis poetikasining ta'limiy imkoniyatlari ham aynan shu poetik rang-baranglik bilan bog'liqdir. Chunki o'quvchi hadisning nasriy bayoni bilan uning she'riy talqini orasidagi farqni kuzatar ekan, u faqat mazmunni emas, balki ifoda usulini, badiiy urg'uni, muallif munosabatini va obrazli tafakkurning imkoniyatlarini ham anglay boshlaydi. Bu esa adabiy ta'limning eng muhim vazifalaridan biri — matnni ko'p qatlamli idrok qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Arbainlarni qiyosiy o'qitish jarayonida o'quvchi bir hadisi sharifning turli shoirlar talqinida qanday o'zgarishini ko'rishi, shu orqali badiiy tafakkur, individual uslub va ma'naviy talqinning farqlarini anglay olishi mumkin. Shu jihatdan arbainchilik materiali adabiyot darslarida faqat ma'naviy-tarbiyaviy vosita emas, balki poetik tahlil va interpretatsiya malakasini rivojlantiruvchi samarali manba bo'lib xizmat qiladi.

5-sinf darsliklarida Imom Buxoriy obrazining shakllantirilishi, avvalo, biografik matnning qanday qurilgani bilan belgilanadi. 2020-yilgi nashrda shaxsiyat ko'proq an'anaviy hikoyaviy usul orqali berilgan bo'lib, unda olimning nasabi, oilaviy muhiti, otasining muhaddisligi va xonadonning halolligi kabi maishiy-axloqiy tafsilotlar kengroq yoritiladi. 2024-yilgi nashrda esa biografik taqdimot nisbatan ixchamlashtirilgan, unda olimning yoshlikdagi ilmiy intilishi, erta yoshdan hadis yodlash qobiliyati va ilmga muhabbat kabi jihatlar oldingi qatorga chiqarilgan.

2020-yilgi darslikda Imom Buxoriy bolaligi bilan bog'liq mo'jizaviy unsurlar, xususan, onaning tushi va ko'rish ne'matining qaytishi haqidagi rivoyat o'rin olgan. 2024-yilgi nashrda esa ushbu qatlam butunlay chiqarib tashlangan. 2024-yilgi nashrda rivoyatdan voz kechilib, ilmiy safar, hadis yodlash va bilish jarayoni markazga olingan.

2024-yilgi nashrning alohida e'tiborga molik jihatlaridan biri hadis matni bilan badiiy matn ya'ni biz tadqiq etayotgan arbainlarning adabiyot darsliklariga kiritilganidir. "G'azablanmaslik (Polvon kim?)" mavzusida berilgan hadisi sharifdan keyin Abdulla Oripovning "Pahlavon" arbaini talqini keltirilishi fikrimizning yaqqol isbotidir. Bunda nasriy manbadagi qat'iy axloqiy hukm ya'ni hadislar arbain she'rlar bilan hissiy-estetik kuch bilan qayta anglashiladi. Metodik nuqtayi nazardan bunday usul 5-sinf o'quvchisi uchun ayniqsa samaralidir. Chunki bu yoshda quruq normativ fikrga qaraganda obrazli va vizual ifoda tezroq qabul qilinadi, uzoqroq xotirada saqlanadi va bahs-mulohazaga ko'proq turtki beradi.

2020-yilgi nashrda sahifalar asosan matn bilan to'ldirilgan bo'lib, vizual vositalar yetarli emas. 2024-yilgi darslikda esa tasviriy materiallar, jumladan, piyola va choynak rasmi hamda itga suv berayotgan kishi tasviri matn mazmunini tushuntiruvchi vosita sifatida ishlatilgan. Bu o'quv materialini nafaqat o'qish, balki ko'rish orqali idrok etish imkonini beradi. Vizual material bu yoshda abstrakt axloqiy tushunchalarni sodda va konkret obrazlarga aylantiradi.

Darsliklar orasidagi muhim tafovutlardan yana biri savol-topshiriqlar tabiatida namoyon bo'ladi. 2020-yilgi nashr savollarida faktni eslash va qayta aytish ustuvor bo'lsa, 2024-yilgi savollar o'quvchini mustaqil fikrga, baholashga va o'z tajribasi bilan bog'lashga undaydi. 2024-yilgi darslikda ayrim topshiriqlarning kino yoki kundalik hayot misollari bilan bog'langanligi kuzatiladi. Bu usul matnni darslik ichida yopib qo'ymaydi, balki uni o'quvchining ko'rgan, his qilgan va yashayotgan tajribasi bilan tutashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik davri o'zbek arbainchiligi mumtoz janrning oddiy davomi emas, balki uning yangilangan va ichki jihatdan boyigan shaklidir. Bu jarayonda xalqona-ma'naviy kengayish, sharhiy ravshanlik va poetik kondensatsiya kabi uch asosiy yo'nalish yuzaga chiqdi. Ana shu holat arbainchilikni ham poetik, ham ma'rifiy, ham ta'limiy jihatdan zamonaviy adabiy jarayonning muhim hodisasiga aylantirdi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Qurbonboyeva Mohidil. O'zbek adabiyotida arbainchilik an'anasi. – T.: “Anorbooks”, 2025.
2. Qudratova M.Sh. Sirojiddin Sayyid she'rlarida hadislarining badiiy talqini. “Zamonaviy filologiyada integratsion jarayonlar” mavzusidagi Respublika miqyosidagi onlayn ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Buxoro, 2020. 267–268-betlar.
3. Pulatova Malohat. Jomiy, Navoiy va Fuzuliy “Arba'in”larida hadislarining adabiy talqini masalalari. “Alisher Navoiy va XXI asr” 9-uluslararo konferensiya materiallari. – Toshkent–Bursa, 2024. 141–146-betlar.
4. Samatova Sabohat. Zamonaviy o'zbek she'riyatida yaratilgan “Arba'in”larning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. IQRO jurnali. 2023. 3-jild, 1-son. 492–495-betlar.
5. Raimova Sayyora Zaitovna. Diniy-ma'rifiy she'rlarning janr tavsifiga doir. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. 2021. 1-jild, 6-son. 142–146-betlar.